



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 31-mart

72-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda­gi “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-246-son Farmoni ijrosi haqida**

Naqdsiz hisob-kitoblarni keng joriy etish, biznes yuritishda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, to‘lov intizomini mustahkamlash hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida viloyatdagi mas‘ul idoralar va tijorat banklarining hamkorlikdagi ishlarini kuchaytirish, hududlarga mas‘ullarni biriktirgan holda nazorat mexanizmini joriy etish maqsadida, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R. Sulaymonovning 2026-yil 30-martdagi 165/16-26-sonli bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 21<sup>1</sup>-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda­gi “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-246-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda – Farmon deb yuritiladi) hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar ijro uchun qabul qilinsin.

Farmon hamda topshiriqlar ijrosini sifatli ta‘minlash, natijadorlikka erishish, eng muhimi, aholi hamda tadbirkorlik subyektlari orasida norozilik va e‘tirozlar, shuningdek, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan risklarning oldini olish maqsadida “dolzarb o‘n kunlik” e‘lon qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki viloyat hududiy boshqarmasi, viloyat adliya va soliq boshqarmalari boshliqlarining o‘z buyruqlari asosida sohaviy mas‘ullarni viloyat hududidagi mavjud alkogol va tamaki mahsulotlari, transport vositalariga yoqilg‘i quyish shoxobchalari, shuningdek, notarial idoralariga biriktirilganliklari hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar belgilab berilganligi inobatga olinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki viloyat hududiy boshqarmasi, viloyat adliya va soliq boshqarmalari boshliqlari o'zlari tomonidan mazkur qarorning ilovasiga muvofiq birlashtirilgan mas'ul xodimlarning vazifalar ijrosini samarali tashkil etishi va bu borada shaxsiy mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rib borsin.

Mas'ul idoralar rahbarlariga o'z xodimlari tomonidan topshiriqlar ijrosi yuzasidan mas'uliyatsizlik va e'tiborsizlikka yo'l qo'yilgan taqdirda, qonunchilikka belgilangan tartibda intizomiy jazo choralarini qo'llash tavsiya etilsin.

4. Birlashtirilgan mas'ullar:

a) avvalo muammolarni o'z tashabbusi bilan aniqlovchi va bartaraf etishga ko'maklashuvchi sifatida asosiy e'tiborni:

2026-yil 1-apreldan boshlab alkogol va tamaki mahsulotlariga;

transport vositalariga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish va elektrda harakatlanadigan transport vositalarini zaryadlash bo'yicha xizmatlarga;

ko'chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga o'n yildan oshmagan M, N, O va G toifaga kiruvchi transport vositalari hamda maxsus avtotransport vositalarini sotish va sotib olish. Bunda, oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha sotuvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblar bank va notarial organlarning axborot tizimlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi orqali amalga oshirilishiga (bundan bank kassalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar mustasno);

shartnomalarni notarial tartibda rasmiylashtirish uchun tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan elektron axborot almashinuvi vositasida to'lovni tasdiqlovchi ma'lumotlar asos bo'lishiga;

to'lovlar faqatgina bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilishiga qaratsin.

b) obyektlarda naqdsiz hisob-kitoblarning afzalliklarini aks ettiruvchi targ'ibot materiallari, banner, shuningdek, chakana savdo do'konlarida naqdsiz xarid qilishda tushuntirish materiallari joylashtirilishini ta'minlab, tashrif buyuruvchilarga tushuntirish ishlarini olib borsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki viloyat hududiy boshqarmasi viloyatdagi tijorat banklari bilan hamkorlikda 3 kunlik muddatda ehtiyojlardan kelib chiqib, aholi va tegishli obyektlarni tijorat banklarining kartalari, paynet va terminallar bilan ta'minlash, shuningdek, bank kassalarini joylashtirish choralarini ko'rsin.

6. Viloyatda naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish hamda amaliy yordam berish bo'yicha viloyat soliq boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki viloyat hududiy boshqarmasi boshliqlari o'rinbosarlari hamda viloyat banklari boshliqlari ilovaga muvofiq tuman (shahar)larga birlashtirilsin.

Ularning asosiy vazifalari etib birlashtirilgan hududida tadbirkorlik subyektlariga birlashtirilgan mas'ul xodimlar tomonidan belgilangan vazifalarni sifatli bajarilishini nazorat qilish, amaliy yordam ko'rsatish va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarni viloyat hokimligiga taqdim qilib borish belgilansin.

7. Viloyat hokimligi umumiy bo‘limi mazkur qarorni viloyat hokimligi apparati mas’ul tarkibiy tuzilmalariga, tegishli viloyat tashkilot va korxonalariga, tuman (shahar) hokimliklariga bir kun muddatda yetkazilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi**



**N.Tursunov**

Navoiy viloyati hokimining  
2026-yil 31-martdagi  
72-5-0-Q/26-son qaroriga  
1-ilova

**Viloyatda naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish hamda amaliy yordam berish bo'yicha viloyat soliq boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki viloyat hududiy boshqarmasi hamda viloyat tijorat banklari boshliqlari va boshliqlarining tuman (shahar)larga biriktirilishi**

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Biriktirilgan mas'ullar		
		Viloyat soliq boshqarmasidan	Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasidan	Viloyat tijorat banklaridan
1.	Navoiy shahri	Boshliq o'rinbosari <b>N.Karimov</b>	Boshliq o'rinbosari <b>U.Xalilov</b>	Viloyat AT "Aloqa bank" boshqarmasidan <b>S.Kamolov</b>
2.	Zarafshon shahri	Boshliqning 1-o'rinbosari <b>V.Rajabov</b>	Boshliq o'rinbosari <b>U.Xalilov</b>	Viloyat AT "Asakabank" boshqarmasidan <b>S.Xudoynazarov</b>
3.	G'ozg'on shahri	Boshliqning 1-o'rinbosari <b>V.Rajabov</b>	Boshliqning 1-o'rinbosari <b>D.Keldiyorov</b>	Viloyat TIF "Milliy bank" boshqarmasidan <b>D.Dilov</b>
4.	Karmana tumani	Boshliq o'rinbosari <b>N.Karimov</b>	Boshliq o'rinbosari <b>O.Chinqulov</b>	Viloyat AT "Sanoat bank" boshqarmasidan <b>F.Nabiev</b>
5.	Konimex tumani	Boshliq o'rinbosari <b>Z.Shomurodov</b>	Boshliq o'rinbosari <b>O.Chinqulov</b>	Viloyat AT "Biznesni rivojlantirish bank" boshqarmasidan <b>I.Saidov</b>
6.	Qiziltepa tumani	Boshliq o'rinbosari <b>Z.Shomurodov</b>	Boshliq o'rinbosari <b>O.Chinqulov</b>	Viloyat AT "Xalq banki" boshqarmasidan <b>N.Muxtomov</b>
7.	Navbahor tumani	Boshliq o'rinbosari <b>Z.Shomurodov</b>	Boshliqning 1-o'rinbosari <b>D.Keldiyorov</b>	Viloyat AT "Turon bank" boshqarmasidan <b>G'.Nusratov</b>
8.	Nurota tumani	Boshliq o'rinbosari	Boshliqning 1-o'rinbosari	Viloyat TIF "Milliy bank" boshqarmasidan

		<b>Z.Shomurodov</b>	<b>D.Keldiyorov</b>	<b>D.Dilov</b>
9.	Tomdi tumani	Boshliqning 1-o‘rinbosari <b>V.Rajabov</b>	Boshliqning 1-o‘rinbosari <b>D.Keldiyorov</b>	Viloyat AT “Agro bank” b <b>Sh.Bo‘rorov</b>
10.	Uchquduq tumani	Boshliqning 1-o‘rinbosari <b>V.Rajabov</b>	Boshliq o‘rinbosari <b>U.Xalilov</b>	Viloyat AT “Asakabank” b <b>S.Xudoynazarov</b>
11.	Xatirchi tumani	Boshliq o‘rinbosari <b>N.Karimov</b>	Boshliq o‘rinbosari <b>U.Xalilov</b>	Viloyat AT “Mikro boshqaruvi” b <b>E.Akramov</b>